

KOSMOSNING ZABT ETILISHI

Abdurahmonova Diyora

*Jizzax davlat pedagogika instituti, Fizika o'qitish metodikasi yo'nalishi talabasi,
Jizzax, O'zbekiston*

Annotatsiya. Ushbu maqola birinchi marta kosmosni zabt etilishi, oyga qòyilgan ilk qadam, kosmonavtlar va kosmosdagi yangi dunyolar haqida.

Kalit sòzlar: kosmos, sayyora, raketa, kosmanavt, kosmik kema.

Abstract. This article is about the first conquest of space; the first step on the moon; about astronauts and new worlds in space.

Key words: space, planet, rocket, spacecraft, spacecraft.

Аннотация. Эта статья о первом покорении космоса; первый шаг на Луну; о космонавтах и новых мирах в космосе.

Ключевые слова: космос, планета, ракета, космический корабль, космический корабль.

"Kosmosda birinchi bòlish tabiat bilan misli kòrilmagan duelga birma-birma kirish demakdir. Yulduzlar, osmon bizga koinotning buyukligini va gòzalligini kòrsatadi, biz kosmik sayohatchilar òz yulduzimizni topishga intilamiz. Vaqt ham keladi, odamlar bilan kosmik kemasi yerni tark etib sayohatga kosmosga yòl oladi, yulduzlarga yòl ochiladi".

Yuriy Alekseyvich Gagarin

Dunyo paydo bòlibdiki insoniyat kòp narsalarni orzu va maqsad qiladi. Jumladan insoniyat òz sayyorasidan boshqa sayyoralarni òrganishga qiziqishgan . Ma'lumki biz Yer sayyorasida yashaymiz. Quyosh sistemasida kòplab sayyoralar va yulduzlar bor. Quyosh sistemasidagi sayyoralardan faqatgina Yer sayyorasida hayot bor. Shunday ekan nima uchun boshqa sayyoralarda hayot yoq ekanligini òrganishga qiziqadi. Kòp sayyoralarni òrganish bu insonlar xohlagan narsadir. Bizning sivilizatsiya va hayotimizni butun Quyosh tizimiga va undan tashqariga kengaytirish -

bu bizni quvontiradigan va ilhomlantiradigan kelajakdir. Bu kabilar uchun biz kosmosni òrganamiz. Kòp izlanishlar va tadqiqotlar natijasida 1957-yil 4-oktiyabirda rus astiranomlari tomonidan 83 kg massali raketa quvvatli, eltuvchi raketa yordamida zaruriy balandlikka olib chiqilib, unga birinchi kosmik tezlik berishga erishildi. Ilk òrganishlar hayvonlarda sinalgani tufayli koinotga uchirilgan raketada ham ilk marta 2 ta "Belka" va "Stirelka" laqabli itlar uchirildi. Bu raketa yer atrofida aylana boshlagan va bu parvoz muvaffaqiyatli bòlgan. Tajriba va òrganishlar natijasida oradan 4 yil òtib 1961-yil 17-aprelda birinchi marta inson kosmosga uchdi. Yerdan kòtarilgan "Vostok" kosmik kemasida Yuriy Gagarin sayyoramizni bir marta aylanib, yerga soĝ-omon tushdi. Bu inson uchun kichik qadam, lekin butun insoniyat uchun ulkan qadam edi. Shu davrdan boshlab kosmosni zabt etish va keng kòlamda òrganish boshlandi. Kòplab kosmanavtlar va astronomlar kosmik kemalarda Yer atrofida orbita bòylab aylanib turli tadqiqotlar òtkazdilar. Kosmosda fasllar yoq: qish va yoz yoq, bahor va kuz yòq. U yerda alohida oqshom yoki erta tong yòq, lekin bòsh joy bor, boshqa hech narsa yòq. Kosmosda yerdan yaxshi hayot yòq. Insoniyat yerda abadiy qolmaydi, lekin yoruĝlik va kosmosni izlab dastlab qòrqmasdan, atmosferadan tashqariga chiqadi, sòngra quyosh atrofidagi butun makonni zabt etadi. Yuriy Gagarin sayohatidan 2 yil òtib, 1963-yil 16-iyunda 26 yoshli Sovet fuqorosi bòlgan ayol Valentina Tereshkova "Vostok" kemasida uchdi. Parvozni boshlagan Tereshkova yerni 48 marta aylanib, 3 kun ichida kosmosda bòldi va birinchi ayol kosmanavt nomini oldi. Izlanishlar ortidan, izlanishlar va òrganishlar olib borildi. Nihoyat yana bir ulkan parvoz rejalashtirildi. Amerikalik olimlar tomonidan 1968-yil 21-iyulda Oyga Inson qadami yetdi. Kosmosni zabt etishda yana bir yutuq bòldi, astiranavt Nil Armstrong va E. Oldirin boshqargan kosmik kema Oyga qòndi. Inson ilk bor Oyga qadam qòydi. "Inson kosmik sayohatning har qanday qiyinchiliklariga dosh bera oladi, extimol bu bizning yutuĝimizdir"- deydi Oyga ilk qadam qòygan Nil Armstrong.

Xulosa qilib aytganda insoniyat doimo izlanishlar, òrganishlar va tajribalar bilan yashaydi. Nimalarnidir ixtiro qilishga yoki yangi joylarni zabt etishga intiladi. Shu

òrinda Quyosh sistemasidagi boshqa kòplab joylarga qadam qòyadi. Koinotda yangi yulduzlar porlaydi!

"Biz Insonning kosmosga kirib borishiga, yer atrofida katta tezlikda uchishga, keyin uchish vaqti - Oyga, Marsga kelishga ishongan edik. Ular koinotga parvoz qilish uchun tògri qaror qabul qilgan kosmanavtlar edi...".

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Berkinov, A., & Tashpulatova, D. (2021). Energy parameters of heterostructural solar photocells.
2. Tashpulatova, D., Ergashev, J., & Berkinov, A. (2020). molekulyar fizikadan masalalar yechishda talaba o'quv-ijodiy qobilyatlarni rivojlantirishning ba'zi muammolari va uni hal qilish yo'llari.
3. Dildora Haydarkulovna Toshpulatova, Alisher Abdurashidovich Berkinov, Bekzod Tirkashev Energy parameters of heterostructural solar photocells // Academic research in educational sciences. 2021. №11.